



## BADIY ASARLARDA MODAL SO`ZLARNING MA`NO KUCHAYTIRISH VAZIFASI

---

*Rahmatullayeva Nozbuvi Jo`rabek qizi*  
*Ishtixon tumani 36-maktab o`quvchisi*

O`zbek adabiyoti buyuk tarixga ega. Bu tarixni o`rganish uchun yillar kamlik qiladi. Adabiyotimizni shakllantirishda, uni bosqicha- bosqich rivojlantirishda juda ko`p ijodkorlarning mehnati singgan. Qanchadan- qancha fidokorlar xalq ongini ostirish, madaniyatimizni rivojlantirish uchun jonlarini qurbon qildilar. Masalan , Jadidchilarimizni olaylik, ular xuddi qishda ochilgan chechak singari kam umr ko`rgan bo`lsalarda, G`ofur G`ulom aytganidek “ Yarim soat ichida tug`ilib, o`lib” asrlarga tatiydigan ijodiy me`ros qoldira oldilar.

Bugun bizning faxrlana oladigan adabiy me`rosimiz bor. Biz bu qimmatli xazinani asrab- avaylamog`imiz lozim.. Buning uchun ularning ijodini chuqurroq o`rganishimiz, ularning ishlariga munosib avlod bo`lmog`imiz darkor.

Ana shunday ijodkorlar orasida o`tkir qalam sohibi, iste`dodli ijodkor O`tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asariga nazar tashlamoqchimiz. Bu asarda urush davridagi qiyinchiliklar, insonlar hayotidagi ziddiyatli vaziyatlar xususida so`z boradi. Biz shu asardagi ta`sirchanlikni sezilarli darajada oshirgan modal so`zlar haqida to`xtalmoqchimiz.

Asarda modal so`zlardan juda ko`p o`rinda foydalanilgan. Aynan ularning ishtiroki gaplarga qanday ta`sir etayotganini ko`rib chiqamiz:

*Chamasi, Fotima kelin ham uning to`satdan urushga jo`naganiga chidolmadi.*

*Xayriyat, kun botmasdan kartoshkani terib bo`ldik.*

*Xullas, erining oldiga bir lagan qirmoch olib qo`ydi.*

Modal so`zlar gapga qo`shilganda o`quvchiga o`zgacha ruhiyat bag`ishlaydi; fikrni yanada yoritib beradi, muallifning voqealarga achinish, gumon tasdiq va boshqa tushunchalarni ifodalaydi. Biz hozirgi gaplarda modal so`zlar qanday ma`no anglatib kelganini aytib o`tamiz.

Masalan, birinchi gapda chamasi so`zi gapga gumon, taxmin ma`nolarini yuklagan. Ikkinchi gapda qo`llangan xayriyat so`zi quvonish manosi gapga kiritiyapti.

Uchinchi gapda qatnashgan xullas modal so`zi aytilmoqchi bo`lgan fikrni yakun topganligini anglatyapti. Ya`ni fikrning yakunlanganini anglatmoqda.



Umuman olganda, bu asarda modal soʻzlar juda koʻp oʻrinda ishlatilgan. Tahlilni davom ettiramiz:

***Demak, togʻamni kuzatishga u ham kelibdi.***

Bu gapda ***xulosalash maʼnosidagi demak*** modal soʻzi ishtirok etgan va gapning umumiy mazmunini tahlil qilishga xizmat qilyapti. Agar bu gapda modal soʻz ishlatilmaganda xulosalash mazmuni boʻlmagan oddiy darak gapga aylanib qolgan boʻlar edi.

***Umuman, sizdaqa brigadirdan voz kechish masalasini oʻylab koʻramiz.***

Bu gapda ishlatilgan ***umuman*** modal soʻzi ham xulosalash maʼnosida keladi. Ammo ***demak*** soʻziga qaraganda maʼnoni kuchaytirishga ham xizmat qilmoqda.

***Avvallari maosh olgan kunim, albatta, eski gap qoʻzgʻalar edi.***

Yuqoridagi gapda ishlatilgan ***albatta*** modal soʻzi ***ishonch munosabatini*** bildirib kelmoqda. Gapning modal soʻz ishlatilmagan holatida ***eski gapning qoʻzgʻalish yoki qoʻzgʻalmasligi haqida fikr anglashilmaydi.*** Ammo ***albatta ishlatilgandan keyin “eski gapning qoʻzgʻalishini” aniq qilib qoʻyadi.***

“Ikki eshik orasi” asarida modal soʻzlarning ishlatilishi asarning yanada taʼsirchanroq boʻlishini taminlamoqda. Yuqorida takidlaganimizdek, bu modal soʻzlar fikrni yanada ochiqroq koʻrsatishga yordam beradi..Modal soʻzlar qatnashgan asar oʻquvchiga estetik zavq bagʻishlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

Oʻtkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”

B.Toʻxliyev Adabiyot nazariyasi

B.Toʻxliyev Hozirgi oʻzbek adabiy tili